

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
<b>1. Сейтов Азамат</b> ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
<b>2. Xolbekov Abdug‘ani</b> ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
<b>3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo</b> DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
<b>4. Abduraxmonova Manzura</b> KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
<b>5. G‘afforova Mavlyuda</b> SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
<b>6. Seitova Zuhra</b> AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
<b>7. Alikariyeva A‘loxon</b> TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
<b>8. Kamalova Khatira</b> QARAQALPAQ XALQI HAYAL-QIZLARINI JAMIETLIK-SIYASII BELSENDILIGI.....	60
<b>9. Якубов Ильдар</b> ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
<b>10. Burxanov Xusniddin</b> RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
<b>11. Hojiyev Zavqiddin</b> IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
<b>12. Axmedova Feruza</b> TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
<b>13. Akramov Xusan</b> ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
<b>14. Axmedov Qaxramon</b> IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSII JIHLATLARI.....	112
<b>15. Raximova Shaxnoza</b> AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
<b>16. Xaydarova Javohira</b> RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIIY USULLARINI JORII ETISH.....	131

<b>17. Kamilov Farxod</b> INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
<b>18. Razzakova Nargis</b> MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
<b>19. Axmedova Ra'no</b> O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
<b>20. Мирзаева Шахноза</b> ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
<b>21. Вахидова София</b> ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
<b>22. Bozorova O'limaxon</b> IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
<b>23. Ruyiddinova Aisha</b> INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
<b>24. Tursunboyev Jahongir</b> SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
<b>25. Raximbayeva Oftobxon</b> ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
<b>26. Sharopov Sadriddin</b> INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
<b>27. Burxanov Xusniddin</b> RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
<b>28. Mamaziyaeva Nargiza</b> O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
<b>29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza</b> O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


**Ruyiddinova Aisha,**

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi

tayanch doktoranti

### INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA’SIRI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354994>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson ongida shakllangan axborot stereotiplari va ularning ishonchli axborotni qabul qilish jarayoniga ta’siri tahlil qilingan. Axborot stereotiplari inson tafakkurida qanday shakllanishi, ular qanday omillar ta’sirida yuzaga kelishi va bu stereotiplarning axborotga bo‘lgan ishonchni qanday pasaytirishini misollar orqali ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada “kognitiv tasdiqlov” va “ijtimoiy tasdiq” (social proof) hodisalari asosida insonlar axborotga qanday munosabatda bo‘lishi izohlangan. Media va ijtimoiy tarmoqlarda stereotiplar orqali noto‘g‘ri yoki salbiy axborotlarning tez tarqalishi, hatto ishonchli ma’lumotlarga nisbatan ham shubha uyg‘otishi ko‘rsatilgan. Xulosa sifatida, tanqidiy fikrlash va faktlarga asoslangan axborot tahlili jamiyatda sog‘lom axborot muhitini shakllantirish uchun zarur omil ekani ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** ishonchli axborot, axborot stereotiplari, ijtimoiy tasdiq, media psixologiyasi.

**Руйиддинова Аиша,**

Базовый докторант

Академии государственной политики и управления

при Президенте Республики Узбекистан

### ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ СТЕРЕОТИПОВ В СОЗНАНИИ ЧЕЛОВЕКА НА ДОСТОВЕРНОСТЬ ИНФОРМАЦИИ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализировано влияние информационных стереотипов, сформировавшихся в сознании человека, на процесс восприятия достоверной информации. Автор показывает на примерах, как формируются стереотипы в человеческом мышлении, под воздействием каких факторов они возникают и каким образом снижают доверие к информации. Также в статье раскрыто, как на восприятие информации влияют такие феномены, как «когнитивное подтверждение» и «социальное доказательство» (social proof). Показано, что распространение ложной или негативной информации через стереотипы в медиа и социальных сетях может вызывать сомнения даже в отношении достоверных источников. В качестве вывода подчеркивается, что развитие критического мышления и анализ информации на основе фактов являются необходимыми условиями для формирования здоровой информационной среды в обществе.

**Ключевые слова:** достоверная информация, информационные стереотипы, социальное подтверждение, медиа психология.

**Ruyiddinova Aisha,**

Basic doctoral student  
at the Academy of Public Policy and Administration  
under the President of the Republic of Uzbekistan

## THE INFLUENCE OF INFORMATION STEREOTYPES IN THE HUMAN MIND ON THE RELIABILITY OF INFORMATION

### ABSTRACT

This article analyzes the information stereotypes formed in human consciousness and their impact on the process of accepting reliable information. It demonstrates how information stereotypes are shaped in human thinking, the factors that lead to their emergence, and how these stereotypes can diminish trust in information through various examples. Additionally, the article explains how individuals relate to information based on the phenomena of "cognitive dissonance" and "social proof." It highlights the rapid spread of incorrect or negative information through stereotypes in media and social networks, which can even provoke doubt about reliable data. In conclusion, it emphasizes that critical thinking and fact-based information analysis are essential factors in shaping a healthy information environment in society.

**Keywords:** reliable information, information stereotypes, social confirmation, media psychology

### KIRISH

Axborot texnologiyalari yuksalgan bugungi davrda inson ongining ma'lumotga nisbatan munosabati tobora muhim mavzuga aylanmoqda. Axborotga ishonch yoki befarqlik, ko'pincha shaxsning ilgari shakllangan tajribasi, qarashlari va ayniqsa stereotiplari bilan chambarchas bog'liqdir. Stereotiplar inson ongida vaqt o'tishi bilan shakllangan, soddalashtirilgan tasniflar bo'lib, ular ko'pincha real faktlardan emas, balki subyektiv yoki ijtimoiy ta'sir omillaridan kelib chiqadi. Ushbu maqola orqali stereotiplarning inson tafakkuri va axborotni idrok etish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilamiz.

"Stereotip" atamasi yunon tilidagi "stereos" (qat'iy, qattiq) va "typos" (shakl, iz) so'zlaridan kelib chiqqan. Psixologik jihatdan stereotip – bu shaxs yoki guruh haqidagi umumlashtirilgan, yuzaki va ko'pincha asossiz fikr bo'lib, u inson ongida ijtimoiy, madaniy yoki shaxsiy tajriba orqali shakllanadi [1]. Ya'ni odamlar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmasdan faqatgina ularning kasbi, millati, dini, jinsidan kelib chiqib baholashdir. Masalan, "hamma nemislar ozoda va tartibli bo'lishi" haqidagi fikr milliy stereotipdir. Yoki, bo'lmasa "ayollardan kuchli rahbar chiqmasligi", ularning "hissiyotga beriluvchanligi" haqida fikrlar gender stereotipiga mansubdir. "Musulmonlar zo'ravon bo'ladi", "hindlar faqat sigirga sig'inishadi", "aktrisa yoki san'at sohasidagi insonlar axloqan buzuq bo'ladi" kabilar ham shular jumlasidandir.

Stereotiplarning shakllanishiga jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari, tarbiya, madaniyat, shaxsiy tajriba va ba'zida diniy yoki siyosiy qarashlar sabab bo'lishi mumkin. Bu fikrlar ongda "mental shablon" sifatida o'rnatilib olib, kelgusida yangicha axborotga nisbatan filtr vazifasini bajaradi. Stereotiplar barqaror, umumlashtirilgan va yuzaki bo'lishi mumkin.

### METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda inson ongida shakllanadigan axborot stereotiplarining ishonchli axborotga ta'sirini tahlil etishda tizimli, tahliliy va psixologik yondashuvlardan foydalanildi. Maqola doirasida inson tafakkuridagi stereotiplarning paydo bo'lish omillari, ularning ongdagi axborotni idrok etish jarayoniga ta'siri, hamda ijtimoiy tarmoqlarda "social proof" (ijtimoiy tasdiq) va "cognitive ease" (kognitiv qulaylik) hodisalari orqali shakllanayotgan jamoaviy fikrlar ilmiy nuqtai nazardan o'rganildi.

Tadqiqotda kontent-tahlil usuli yordamida ommaviy axborot vositalaridagi (xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi) munozaralar va foydalanuvchi fikrlari tahlil qilindi. Kuzatuv va taqqoslash usuli orqali ijobiy va salbiy stereotiplarning axborotni idrok etishga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, psixologik tahlil usuli asosida insonlarning avvalgi tajriba, hissiyot va muloqot madaniyatiga asoslanib qaror qabul qilish mexanizmlari tahlil etildi.

Tadqiqot obyekti – inson ongida shakllanadigan axborot stereotiplari, tadqiqot predmeti esa – ushbu stereotiplarning ishonchli axborotni qabul qilishga bo'lgan ta'siridir.

Maqolada O'zbekiston va xorijiy mualliflarning psixologiya, kommunikatsiya va sotsiologiya yo'nalishidagi asarlari, shuningdek, R.Sialdinining “Influence: Science and Practice” asaridagi g'oyalar tahliliy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqot natijalari ishonchli axborot siyosatini shakllantirishda, jamoatchilik fikrini sog'lom yo'naltirishda, hamda axborot psixologiyasini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

## ASOSIY QISM

**Axborotni qabul qilishda stereotiplarning roli.** Inson ongi har kuni minglab axborot oqimiga duch keladi. Bunday vaziyatda u ma'lumotni tezda saralash, ajratish va talqin qilishga intiladi. Shuning uchun stereotiplar ongning “tezkor fikrlash mexanizmlari” sifatida paydo bo'ladi [2]. Biroq bu yondashuv ko'pincha noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Faktlarga asoslanmaganligi jihatidan esa, ishonchli axborotni olishga qarshilik qiladi. Insonlar stereotiplarga tayangan holda axborotni noto'g'ri talqin qilishlari, qisqa va yuzaki qaror qabul qilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Stereotiplar odamlarning faqat o'ziga mos tushadigan axborotni izlashiga olib keladi. Bu holatda inson o'zining ilgari shakllangan stereotipiga mos keladigan ma'lumotlarni tanlaydi va unga zid bo'lgan ma'lumotni e'tiborsiz qoldiradi. Misol uchun, agar biror odam “artistlar yomon bo'ladi” degan stereotipni o'rganib olsa, u har qanday artistga nisbatan salbiy yangiliklarni tezda topishi mumkin. Lekin, sohaning boshqa yaxshi jihatlariga oid faktlarni e'tiborsiz qoldiradi. Bu psixologiyada kognitiv tasdiqlov (confirmation bias), deb ataladi [3]. Salbiy stereotiplar bilan bir qatorda ijobiy stereotiplar ham mavjud, albatta.

Masalan, “ko'pchilik diniy soha vakillari odob-axloq nuqtai nazaridan yetuk insonlar bo'ladi” kabi qarashlar ham, aslida, barcha uchun umumlashtirilmasligi lozim. Bu nisbiy tushunchadir.

Insonlar miyasida shakllangan ayrim stereotiplar esa, nafaqat qarorlar qabul qilishda, balki ishonchli axborotlarni olishda ham qarshilik keltirib chiqaradi. Ong ko'plab ma'lumotlar oqimini boshqarishda stereotiplar orqali vaqt va kuchni tejaydi, biroq bu har doim ham to'g'ri natijaga olib kelmaydi. Inson miyasi har bir vaziyatni chuqur tahlil qilish o'rniga, ilgari shakllangan stereotiplarga tayanib qaror qabul qiladi. Bu esa noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Masalan, biror kasb yoki millat haqida avvaldan shakllangan stereotip tufayli, odam real ma'lumotga emas, o'z tasavvuriga tayangan holda fikr yuritadi. Stereotiplar ko'p hollarda emotsiyaga asoslangan bo'ladi, shuning uchun ular yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar bilan uyg'unlashib, ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladi. Bu esa soxta ma'lumotlarni ishonchli ko'rinishga olib keladi. O'z hayotida o'zgarish ko'rmayotgan odamlarga islohotlar, yangidan yaratilayotgan ish o'rinlari va rivojlanayotgan taraqqiyot haqidagi xabarlar ham ishonchsizdek tuyulishi mumkin, garchan ular haqiqat bo'lsada. “Bu poytaxtda bo'layapti”, “statistika xato bo'lishi mumkin”, “faqat tanish-bilishlar foyda ko'ryapti” degan stereotiplar mamlakatdagi real yutuqlarga ham ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, hatto ular rasmiy manbalarda e'lon qilingan bo'lsada.

Nega ayrim rasmiy manbalariga odamlar ishonmay qo'ygan, degan savol tug'ilishi mumkin. Chunki, avval ushbu manbalar orqali uzatilayotgan axborotlar bir yoqlamaligi, real muammolarni tan olmaganligi, faqat ijobiy muvaffaqiyatlar olqishlangani sababidan, degan fikrga kelish mumkin. Berilayotgan axborot qanchalik ijobiy bo'lmasin, agar odamlar hayotida sezilmasa, unga ishonishmaydi. Kun.uz saytining Instagramdagi rasmiy obunachilari soni hozirgi kunda 6,1 million. Bu respublikamizdagi davlat va nodavlat telkanallarining tarmoqdagi rasmiy kuzatuvchilari soni bilan solishtirilganda yuqori ko'rsatkich:

(2025-yil 10-iyun holatiga ko'ra):

- Zo'r TV – 4,4 mln
- MY5 TV – 2,3 mln

- TV Sevimli – 1 mln
- O‘zbekiston 24 – 102 ming
- Yoshlar telekanali – 98,2 ming.

Joriy yilning iyun oyida, “Kun.uz” saytida ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar 10% ga oshirilishi, bu borada prezident farmoni imzolangani haqida ishonchli axborot chiqdi [4]. Bu ma’lumotni shu kungacha 625 ming odam ko‘rgan, 1379 nafar kuzatuvchi fikr bildirgan, 11 mingdan ortiq kishiga ma’lumot yuborilgan. E’tiborli jihati – axborotga bildirilgan izohlar ichida ijobiylari emas, salbiylari ko‘pligidadir. Nima uchun aniq, ishonchli axborotga ham insonlar ishonmay, norozilik kayfiyatini bildirmoqda? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bizningcha, buni ikki jihatdan ko‘rib chiqish mumkin:

1. Birinchi jihat – odamlar bu yerda axborotning o‘ziga emas, balki tizimga ishonmayotgan bo‘lishi mumkin. Ya’ni, ular fikricha, oylik oshgan taqdirda ham narx-navo balandligi, hech qanday katta o‘zgarish bo‘lmayotgani, yoki yana narxlar oshishi, jarimalar ko‘tarilishi va ko‘payishi haqidagi qarashlaridan kelib chiqib ishonmayaptilar.

2. Ikkinchi jihat – ijtimoiy tasdiq hodisasi (Social proof).

Social proof – bu odamlarning o‘z qarorlarini yoki fikrlarini boshqalar qanday harakat qilayotganiga qarab shakllantirishidir. Agar insonlarning ko‘pchiligi biror narsani yaxshi deb bilsa, demak to‘g‘risi shu, yoki aksincha – noto‘g‘ri deb o‘ylashayotgan bo‘lsa, demak noto‘g‘ri degan fikrga kelishidir [5].

Ijtimoiy tarmoqda agar salbiy fikrlar ijobiylaridan ko‘p bo‘lsa, undan keyingi izoh ham katta ehtimol bilan salbiy bo‘lishi mumkin. Izoh bildirishdan avval kuzatuvchilar albatta o‘zidan avvalgilarini o‘qib chiqadilar. Salbiy fikrlar insonlar e’tiborini tez tortadi va ular tarmoqda virus kabi tez tarqaladi va ommalashadi. Oddiy restoran tanlashda ham biror insondan maslahat so‘rab fikriga qarashimiz, yoki biror narsa sotib olayotganda ijobiy fikrlar ko‘p bo‘lsa, “ishonchli” deb o‘ylashimiz – bularning hammasi “social proof” yoki “bandwagon effect” (ommaviy fikrga ergashish) hodisasidir [6]. Bu kabi hodisalar jamiyatda odamlar fikriga kuchli ta’sir qiladi. Ba’zan xavfli bo‘lishi ham mumkin. Bu esa odamlarni mustaqil qaror qabul qilishga emas, ommaviy fikrlash va xulosa chiqarishga olib keladi. Oddiy qilib aytganda, kognitiv qulaylikni tanlashadi.

Kognitiv qulaylik (Cognitive ease) – bu miyani zo‘riqtirmay qaror qabul qilishdir.

Insonlar o‘zlarini qulay his qiladigan, ya’ni oson va tez tushuniladigan ma’lumotlarni afzal ko‘rishadi. Bu, o‘z navbatida, xatoliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, odamlar oson tushuniladigan va ilgari ko‘rgan narsalarni ko‘proq ishonchli deb qabul qilishadi [7].

#### **Social proof natijasida:**

- Yolg‘on va noto‘g‘ri axborotlar kuchayishi,
- Odamlar o‘ylab o‘tirmay ishonishi,
- Ommaviy noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi,
- Fikr erkinligi yo‘qolishi mumkin.

Robert Cialdini va “Influence: Science and Practice”.

Robert Cialdini o‘zining mashhur “Influence: Science and Practice” (2001) asarida insonlarning qaror qabul qilishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni tahlil qiladi. Uning asarida ijtimoiy ishonch va manipulyatsiya strategiyalari haqida keng qamrovli fikrlar mavjud. Sialdini stereotiplar va umumiy ijtimoiy fikrlarning ta’sirini **\*\*ijtimoiy ishonch (social trust)\*\***ni shakllantirishda muhim omil sifatida ko‘rsatadi [8]. Odamlar, ko‘pincha atrofdagilarning qarorlarini va harakatlarini asos qilib, o‘z fikrlarini qabul qiladilar. Ular bir-birlariga tasdiqlangan, asosli yoki noaniq axborotni qabul qilishga undaydilar.

Cialdini shunday yozadi:

“When we are unsure of our own opinions, we often look to others to help us shape those opinions.”

Ya’ni:

“Biz o‘z fikrlarimizga ishonmaganimizda, ko‘pincha boshqalarga murojaat qilib, ularning yordamida o‘z fikrimizni shakllantirishga harakat qilamiz [9]”.

Bu iqtibos Cialdini ijtimoiy tasdiq va stereotiplarning odamlar qarorlarida qanday katta rol o'ynashiga e'tibor qaratadi. Odamlar ko'pincha atrofda gilarining harakatlariga qarab o'z fikrlarini shakllantiradilar va bu ijtimoiy ishonch orqali amalga oshiriladi. Natijada, stereotiplar jamiyatning umumiy qarashlariga asoslanadi va odamlarni yuzaki, tezkor qarorlar qabul qilishga majbur qiladi.

Nima uchun insonlar shaxsiy fikr yuritishdan ko'ra jamoaning fikriga ergashishni ma'qul ko'rishadi? Jamoaviy fikr bildirishga o'rgangan ayrim insonlar shaxsiy fikrlarini bildirganlarida jamiyat tomonidan chetlashtirilishlarini istashmaydi, shuning uchun ba'zan ommaviy fikrga ergashadilar, ba'zan esa sukut saqlaydilar, Noelle-Neumann (1974) – “Spiral of silence” da shunday nazariyani ilgari suradi. “People remain silent when they feel their views are in the minority for fear of social isolation”, ya'ni (“Odamlar o'z fikri ozchilikda, deb hisoblasa, ijtimoiy chetlatilishdan qo'rqib sukut saqlaydi”) [10]. Natijada insonlar mustaqil fikr bildirishdan cho'chishadi. Irving Janis (1972) – “Groupthink” nazariyasi orqali, “Guruh qanchalik mustahkam bo'lsa, shunchalik mustaqil fikr jamoaviy kelishuv bilan almashtiriladi” [11], degan nazariyani ilgari suradi. Bu orqali esa, nafaqat mustaqil fikr, balki tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni filtrlash ham yo'qolishi mumkinligi aytiladi.

### **XULOSA**

Stereotiplar – inson tafakkurining tabiiy, biroq xavfli jihatlaridan biridir. Ular axborotga bo'lgan ishonchni susaytiradi, tanlab va yuzaki ma'lumotlarni qabul qilishga olib keladi, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy darajadagi noto'g'ri xulosa hamda qarorlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Bugungi zamonaviy axborot makonida stereotiplar nafaqat individual darajada, balki jamiyat miqyosida ham noto'g'ri yo'nalishdagi ijtimoiy fikrlar, qarorlar va siyosatlarining vujudga kelishiga olib kelishi mumkin.

Stereotiplar ta'sirini kamaytirish va undan xoli fikrlashni shakllantirish uchun, eng avvalo, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ishonchli va tekshirilgan manbalaraga tayanish, shuningdek, emotsiyalarga emas, fakt va dalillarga asoslangan fikr yuritish lozim. Ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy fikrlarning ko'pligi esa “hamma shunday o'ylaydi”, degan umumlashtirilgan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Har bir insonning individual fikri va ommaviy fikrlar o'rtasidagi farqni anglash, ishonchli axborotni tanlash, qaror qabul qilish va xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Ommaviy stereotiplar ortida yashiringan ongli yoki ongsiz taxminlar ustida ishlash esa, axborotga nisbatan sog'lom munosabat shakllanishining asosiy omillaridan biridir.

### **Takliflar**

1. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Ommaviy axborot oqimida har bir inson fakt va fikrni farqlay olishi uchun ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish zarur. Bu insonni stereotiplarga asoslangan tezkor, yuzaki xulosalardan himoya qiladi.

2. Axborot savodxonligini oshirish.

Axborotni tahlil qilish, manbalarni solishtirish va tekshirish madaniyatini shakllantirish kerak. Ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari bu borada hamkorlikda trening va seminarlar o'tkazishlari maqsadga muvofiq.

3. Stereotiplarga qarshi ijtimoiy kompaniyalar tashkil etish.

Jins, millat, kasb yoki din asosidagi noto'g'ri tasavvurlarni yo'qotish uchun turli media loyihalar, roliklar va ma'rifiy kontentlar yaratilishi lozim.

4. Ishonchli axborot manbalarini kuchaytirish.

Davlat va nodavlat OAVlar o'z materiallarida shaffoflik, balans va ishonchlilikni ta'minlashi zarur. Shu yo'l bilan ularning auditoriya oldidagi ishonchi ortadi.

5. Emotsional manipulyatsiyalarga qarshi psixologik tayyorgarlik.

Axborot iste'molchilari hissiyotga asoslangan, lekin faktlarga ega bo'lmagan xabarlarini tan olish va ularni rad etish ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerak.

6. Ommaviy fikrga ergashish (social proof) hodisasini kamaytirish.

Fikr bildirish va baholashda har kim mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatilishi, “hamma shunday o'ylaydi” degan yondashuvdan voz kechish zarur.

7. Ijtimoiy tarmoqlarda axborotni filtrlash tizimlarini takomillashtirish.

Noto‘g‘ri yoki manipulyativ ma‘lumotlar tez tarqalishining oldini olish uchun algoritmik filtrlash, faktcheking mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

#### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Allport, G. W. (1954). The Nature of Prejudice. Addison-Wesley Publishing Company.
2. Kahneman, D. (2011). Thinking, Fast and Slow. New York: Farrar, Straus and Giroux.
3. Kahneman, D. (2011). Thinking, Fast and Slow. New York: Farrar, Straus and Giroux.
4. Kun.uz (2025). “O‘zbekiston ijtimoiy tarmoqlaridagi ishonch muammolari”
5. [https://ru.wikipedia.org \(https://ru.wikipedia.org/\) g/wiki/Социальное доказательство.](https://ru.wikipedia.org/wiki/Социальное_доказательство)
6. Cialdini, R. B. (2001) Influence: Science and Practice. Allyn & Bacon
7. Kahneman, D. (2011). Thinking, Fast and Slow. New York: Farrar, Straus and Giroux.
8. Cialdini, R. B. (2001) Influence: Science and Practice. Allyn & Bacon
9. Cialdini, R. B. (2001) Influence: Science and Practice. Allyn & Bacon
10. Noelle-Neumann (1974) – “Spiral of silence”
11. Irving Janis (1972) – “Groupthink”.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000